



Musiqaning inson ongiga ta'siri

Oripova Dilafruz

Andijon tumani 12-son bolalar musiqa va
san'at maktabining Estrada honandaligi
yo'nalishining o'qituvchisi

Annotatsiya: Musiqa ongga uzviy ta'siri, inson tushkun kayfiyat holatiga ijobiy yordam berish. Musiqa tasavvurdagi obrozlarimizni jonlantirishga, analiz qilishimizga yordam beradi. Ong osti hayolotimizni bitta joyga jamlashga yordam beradi. Hattoki yangi reja va strategiyalar yaratishimiz uchun muhim ro'l o'ynaydi.

Kalit so'z: To'lqin, analizator, musiqa, ong, orzu, uzviy bog'lanish, xotira, voqealilik.

Masalan, biror egiluvchan jism cholg'u asbobi, torining tebranishi natijasida havoda uzunasiga taralgan to'lqinli tebranishlar hosil qiladi. Ular tovush manbaidan turli tomonlarga aylanadimon tarqaladi. Ushbu hodisaning umumiy zanjiri quydagicha amalga oshadi. Toshuv to'lqini manbai, eshitish analizatorlari orqali qabul qilingan qo'zg'atuvchi ta'sirining bosh miyyaga uzatilishi, fizik nuqtai nazardan tebranishlar o'lchovi sifatida tebranadigan jismning bir sekundagi tebranishlar Soni gerts¹ deb qabul qilingan. Yangragan tovush to'lqinlari eshitish organi tomonidan qabul qilingach Unga ta'sir etadi va asab tuzilmasi orqali bosh miyyaga tovush sezgisini qo'zg'atadi. Bilamizki XXI asrga kelib, inson ongini tasavvurlarini, fikr doirasini kengaytirish yo'lida insonning stress xolidan, tushkun kayfiyatdan olib chiqish maqsadida musiqiy meditatsiyalar qo'llanilib keladi. Musiqa inson asab tizimlariga Har qanday qo'llanilmadan ko'ra tezroq va aniqroq yetib



boradi Musiqa asari tevarak atrofdagi narsalarni Har hil his-tuyg'ularlarni ifodalaydi. Ularni ifodalashda Musiqa asarlarini ayrim elementlari muhim ro'l o'ynaydi. Ular kuy, ritm, garmoniya, polifoniya, musiqaning boshqa ifoda vositalari asosan shu his tuyg'ularni kuchaytirish yoki pasaytirish uchun xizmat qiladi. Ular dinamik temr, temp, faktura va hokoza. Musiqa insonlar hayotini his tuyg'ularini va orzu istaklarini o'ziga hos badiiy Tilda ifoda etadi. Musiqaga ajoyib tarif bergan bo'lardim Musiqa yoki ashula tinglar ekansiz, aytilayotgan qo'shiq yoki yangrayotgan asar qay millatga,qay irqga mansub bo'lmasin uni hislarimiz orqali jonlantira olamiz. Qo'shiqlar boshqa tillarda kuylansa ham ularni ongimizda tasvirlab qalban nima haqda aytilganini his qilamiz. Musiqa tinglash,ongimizga ta'sir o'tkazadi va yangi g'oya, fikrlarni bir joyga jamlaydi. Orzularimizni ongimiz orqali hayolan tasvirlaymiz va jonlantiramiz. Bu meditatsiyani ko'p qo'llaganim uchun hayollarim,hayotga ko'chdi. Inson onginda musiqaning yana bir o'rni shundan iboratki, odam bolasi qachon o'z dardi bilan yolg'iz qolar ekan, bu imkoniyatdan unumli foydalanishi darkor. Ya'ni o'zining muammosini, to'la qonli voqealikni o'z boshidan ohirigacha o'zi ishtirok etgan bo'lgandan keyin uning butun tafsilotini o'zi yaxshi biladi. Suxbatdoshiga qaysidir qismini aytadi va qaysidir qismi uning g'urur chegarasida to'xtaydi. Shu sababli yolg'iz qolib musiqa bilan qalb og'riqlarini, xato kamchiliklarini o'zi to'g'rilamas ekan uni hech Kim to'g'rilay olmaydi. Inson ongining shakl shamoyili yo'q. Shu sabab tinglagan musiqa asarini o'zi tasvirlaydi. Hayotda kutilmagan voqea hodisalar insonni ba'zan dovdiratib qo'yadi. Ko'p odamlar bunday paytda kitob o'qiydi, musiqa tinglaydi yoki sevimli ishi bilan shug'ullandi.

Albert Enshteyn daxo,nisbiylik va yorug'lik nazaraiyasini asoschisi matematik va fizik olim. Otasi kichik zavod egasi onasi fortepianist musiqachi bo'lgan. Ko'rinib turibdiki bevosita oilada onaning o'rni katta hisoblanganidek uning ham onasidan musiqada ilhomlanishni yangi g'oyalar yaratish ishtiyoqini oshirgani tabiiy u umrini ohirgacha sikripkasini hamma joyda ko'tarib yurgan u sikripka chalishni yaxshi ko'rgan. Musiqasiz hayotimni tasavvur eta olmayman deya takidlagan o'zining auditoriyasiga.



Musiqqa ongdagi unutilib ketgan orzularni huddi hayotda bo'lgandek jonlantira oladi. Demoqchimanki ulug' kishilar ham hayotining ajralmas qismlarini musiqqa bilan bog'lagan. Musiqqa inson onginging voqealikni to'liq analiz qilish uning oxirgi qarorini chiqarishga yordam beradi. Tinglayotgan musiqqangizga hayolan erk bersangiz xotira sandig'ingizdan, hamon yap-yangiday turgan orzu maqsadlaringizni junbushga keltiradi. Bevosita ongingizga ta'sir o'tkazadi va kutilmagan tasodiflarga to'qnashtiradi. Musiqqa ongingiz ostida yotgan hali ibtidosi to'liq shakllanmay turib intixoga uchragan orzularingizni yana qaytadan tiriltirishga yordam beradi. Bir inson aytgan ekan! Birinchi 30yillik bizga hayot haqida matn beradi, keyingi 30 yillik ushbu matnni sharhini beradi. Bundan ko'rinib turibdiki inson Har 10 yillikda aqli, ongi, butun tanasi o'sadi. Tinglayotgan musiqalari ham tamomila boshqa yo'nalishlarda bo'lishi tabiiy, demakki ongimiz yuksalar ekan eshitayotgan musiqalarimiz kuy qo'shiqlarimiz ham murakkablashib boraveradi. Ongimiz orqali eng go'zal manzarani kuzatish imkoniyatini qo'lga kiritish uchun go'zal musiqqa tinglang.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
2. Umumiy psixologiyasi.